

HOZIRGI DAVRDA JAHON TARTIBOTI SHAKLLANISHIGA “GLOBAL JANUB”NING TA’SIRI VA ISTIQBOLLARI

Muhayyo Xabibullayeva

*O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi,
Xalqaro munosabatlar va jahon siyosati yo‘nalishi magistranti*

Muxtor Nazirov

O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi dotsenti, PhD

Anotatsiya. Ushbu maqolada Global Janub mamlakatlarining xalqaro maydondagi o‘sinib borayotgan roli, ularning demografik, iqtisodiy va siyosiy jarayonlardagi ta’siri tahlil qilingan. Shuningdek, Markaziy Osiyo davlatlarining Global Janub bilan siyosiy, iqtisodiy, xavfsizlik va ekologik sohalarda olib borayotgan hamkorlik yo‘nalishlari va istiqbollari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Global Janub, xalqaro xavfsizlik, siyosiy hamkorlik, iqtisodiy integratsiya, Markaziy Osiyo, demografik o‘zgarishlar, ekologik barqarorlik.

Annotation. This article analyzes the growing role of Global South countries in the international arena, focusing on their impact on demographic, economic, and political processes. It also explores the directions and prospects of cooperation between Central Asian states and the Global South in political, economic, security, and environmental spheres.

Keywords: Global South, international security, political cooperation, economic integration, Central Asia, demographic changes, environmental sustainability.

Аннотация. В данной статье проанализирована растущая роль стран Глобального Юга на международной арене, а также их влияние на демографические, экономические и политические процессы. Особое внимание уделено направлениям и перспективам сотрудничества стран Центральной Азии со странами Глобального Юга в сферах политики, экономики, безопасности и экологии.

Ключевые слова: Глобальный Юг, международная безопасность, политическое сотрудничество, экономическая интеграция, Центральная Азия, демографические изменения, экологическая устойчивость.

Kirish. Bugungi kunda xalqaro munosabatlar tizimi tub o‘zgarishlarni boshidan kechirmoqda. Sovuq urush davrida shakllangan ikki qutbli dunyo tartibi o‘miga kelgan

globallashuv, texnologik taraqqiyot, demografik o'zgarishlar va iqlim o'zgarishlari kabi omillar xalqaro xavfsizlik va ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarga yangicha ta'sir ko'rsatmoqda. Janub mamlakatlarining xalqaro maydondagi ta'sirini belgilovchi tendensiyalarni tahlil qilish, global xavfsizlikni ta'minlash va barqaror rivojlanishga erishish yo'llarini aniqlashda muhim ahamiyatga egadir. Ushbu maqolada Global Janubning yuqorida sanab o'tilgan xususiyatlariga ahamiyat qaratiladi.

Muhokama. Janub mamlakatlarining rivojlanishiga urbanizatsiya va demografik o'zgarishlarining ta'siri

Janub mamlakatlari aholisining tez sur'atlar bilan o'sishi va urbanizatsiya jarayonlarining jadallashuvi xalqaro xavfsizlik va ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Masalan, Birlashgan Millatlar Tashkiloti ma'lumotlariga ko'ra, 2023-yil holatiga Afrika aholisi 1,46 milliard kishini tashkil etgan bo'lsa, 2050-yilga borib bu ko'rsatkich 2,5 milliardga yetishi prognoz qilinmoqda. Shu bilan birga, urbanizatsiya ham yuqori sur'atlarda davom etmoqda. 2020-yil holatiga ko'ra, global urban aholi sonining 93,9 foizi aynan Global Janub davlatlariga tegishli. Shaharlarda aholining ko'payishi natijasida infratuzilmalarga bosim ortib, uy-joy, ta'lim, sog'liqni saqlash va transport tizimlarida yetishmovchilik yuzaga kelmoqda[1]. Masalan, Nigeriyada har yili 500 mingdan ortiq odam Lagos shahriga ko'chmoqda, ammo shahar infratuzilmasi bu o'sishga moslasha olmayapti. Aholining o'sishi resurslarga bo'lgan talabni oshiradi, oziq-ovqat xavfsizligi, suv ta'minoti va energiya resurslari bilan bog'liq muammolarni keltirib chiqaradi. Urbanizatsiya esa, bir tomondan, iqtisodiy o'sish va innovatsiyalarni rag'batlantirsa, ikkinchi tomondan, aholi zichligining oshishi, infratuzilma yetishmasligi, ishsizlik va jinoyatchilik kabi ijtimoiy muammolarni kuchaytiradi. Bu omillar Janub mamlakatlarida siyosiy beqarorlikni keltirib chiqarishi va migratsiya oqimlarini kuchaytirishi ehtimoldan holi emas.

Global janub davlatlaridagi demografik o'zgarishlar va urbanizatsiya xalqaro xavfsizlik va ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarga kuchli ta'sir ko'rsatadi. Kelib chiqishi mumkin bo'lgan muammolarni hal qilish uchun hukumatlar, xalqaro tashkilotlar va fuqarolik jamiyati o'rtasida hamkorlikni kuchaytirish, barqaror rivojlanishni ta'minlash, inklyuziv shaharsozlikni qo'llab-quvvatlash va yoshlarga investitsiya kiritish zarur.

Janub davlatlarining iqtisodiyoti va xavfsizlik masalalari

So'nggi o'n yilliklarda Janub mamlakatlarining iqtisodiy o'sish sur'atlari Shimol mamlakatlariga nisbatan yuqori bo'ldi. Xitoy, Hindiston, Braziliya va Janubiy Afrika kabi davlatlar global iqtisodiyotda muhim rol o'ynamoqda[3]. Bu mamlakatlar global savdo, investitsiyalar va texnologiyalar transferida faol ishtirok etmoqda. Biroq, iqtisodiy o'sishning notekis taqsimlanishi, qashshoqlik, tengsizlik va atrof-muhitning ifloslanishi kabi muammolar saqlanib qolmoqda. Janub mamlakatlarining iqtisodiy o'sishi global iqtisodiy

barqarorlikka ta'sir ko'rsatadi va xalqaro savdo siyosatida yangi tendensiyalarni shakllantiradi. Global Janub davlatlaridagi iqtisodiy o'sish va global savdoning xalqaro xavfsizlik va ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarga bir qator omillar bilan belgilanadi. Iqtisodiy o'sish, bir tomondan, qashshoqlikni kamaytirish, ta'lim va sog'liqni saqlash imkoniyatlarini kengaytirish, infratuzilmani rivojlantirish orqali ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlashi mumkin.

Iqtisodiy o'sishni inklyuziv va barqaror qilish, tengsizlikni kamaytirish, atrof-muhitni muhofaza qilish va xalqaro savdoda adolatli sharoitlarni ta'minlash orqali, global Janub davlatlari xalqaro xavfsizlik va ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikka hissa qo'shishi mumkin. Janub mamlakatlari xalqaro maydonda siyosiy faolligini oshirmoqda. Ular global boshqaruv tizimida, xususan, BMT, Jahon banki va Xalqaro valyuta fondida o'z ovozini balandroq eshittirishga harakat qilmoqda. So'nggi o'n yilliklarda global Janub davlatlari xalqaro munosabatlarda tobora faol rol o'ynamoqda, bu ularning iqtisodiy o'sishi, demografik o'zgarishlar va siyosiy barqarorlikka intilishi bilan bog'liq. Global Janub davlatlarining siyosiy faolligi xalqaro xavfsizlikka ham bevosita ta'sir qiladi. Bir tomondan, bu davlatlar mintaqaviy mojarolarni hal qilishda, terrorizmga qarshi kurashda va transmilliy jinoyatchilikka qarshi kurashda muhim rol o'ynaydi. Misol uchun, Afrika Ittifoqi (AI) Afrikadagi tinchlikparvarlik operatsiyalarida faol ishtirok etadi, bu mintaqaviy xavfsizlikni ta'minlashga yordam beradi[2]. Boshqa tomondan, Global Janub davlatlaridagi ichki siyosiy beqarorlik, korrupsiya va boshqaruvdagi muammolar xalqaro xavfsizlikka tahdid solishi mumkin, chunki bu omillar ekstremistik guruhlarining faoliyatini kuchaytirishi va migratsiya oqimlarini keltirib chiqarishi mumkin. Global boshqaruv va Global boshqaruv institutlari, masalan, Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT), Jahon Banki va Xalqaro Valyuta Jam'armasi (XVF), global siyosatni shakllantirishda muhim rol o'ynaydi.

Janub mamlakatlari xavfsizlik sohasida bir qator muammolarga duch kelmoqda. Ichki mojarolar, transmilliy jinoyatchilik, terrorizm, ekstremizm va dengiz qaroqchiligi kabi tahdidlar mintaqaviy va global xavfsizlikka salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Janub mamlakatlari bu tahdidlarga qarshi kurashish uchun o'zaro hamkorlikni kuchaytirmoqda va xalqaro hamjamiyatdan yordam so'ramoqda. Xavfsizlik muammolari Janub mamlakatlarining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga to'sqinlik qiladi va migratsiya oqimlarini kuchaytiradi. Global janub davlatlaridagi xavfsizlik muammolari bir tomondan, terrorizmning tarqalishiga, transmilliy uyushgan jinoyatchilikning kuchayishiga va gumanitar inqirozlarning chuqurlashuviga olib keladi. Global Janub davlatlaridagi mojarolarni bartaraf etish uchun inklyuziv global boshqaruv mexanizmlarini yaratish, xalqaro tashkilotlarning rolini kuchaytirish va rivojlangan davlatlarning moliyaviy va texnik yordamini oshirish zarur. Bundan tashqari, mojarolarning asosiy sabablarini bartaraf etish, ijtimoiy adolatni

ta'minlash va inklyuziv iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish orqali barqaror tinchlikka erishish mumkin. Janub mamlakatlari mintaqaviy integratsiya va hamkorlikni rivojlantirishga ham katta e'tibor qaratmoqda. ASEAN, Afrika Ittifoqi, Janubiy Amerika davlatlari ittifoqi (UN ASUR-Union of South American Nations) kabi mintaqaviy tashkilotlar siyosiy, iqtisodiy va xavfsizlik sohalarida hamkorlikni kuchaytirishga qaratilgan[4].

Xulosa. Yuqoridagi tahlillar shuni ko'rsatadiki, Global Janub davlatlari zamonaviy xalqaro tartibotning shakllanishida tobora muhim o'rin egallamoqda. Ularning demografik salohiyati, iqtisodiy o'sishi, siyosiy faolligi va ekologik tashabbuslari global xavfsizlik va barqaror rivojlanish jarayonlariga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Aholi sonining ortishi, urbanizatsiya va yoshlar o'rtasidagi ishsizlik kabi omillar ijobiy imkoniyatlar bilan birga, murakkab muammolarni ham yuzaga keltirmoqda.

Shu bilan birga, Markaziy Osiyo davlatlari ham Global Janub mamlakatlari bilan har tomonlama hamkorlikni kengaytirishga intilmoqda.

Biroq, mavjud xavf-xatarlar, ichki siyosiy beqarorliklar, resurs yetishmovchiligi va institutsional cheklovlar bu hamkorlik jarayoniga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shu sababli, inklyuziv va barqaror siyosiy strategiyalami ishlab chiqish, xalqaro hamkorlikni kuchaytirish va o'zaro ishonchni mustahkamlash Global Janub va Markaziy Osiyo davlatlari o'rtasidagi aloqalarning istiqboli uchun muhim omil bo'lib qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. African Development Bank. (2018). Jobs for Youth in Africa: Strategy for Creating 25 Million Jobs and Equipping 50 Million Youth.
2. https://www.afdb.org/fileadmin/uploads/afdb/Images/high_5s/Job_youth_Africa_Job_youth_Africa.pdf
3. Collier, P. (2007). The bottom billion: Why the poorest countries are failing and what can be done about it. Oxford University Press.
4. Farrell, M., Hettne, B., & Van Langenhove, L. (Eds.). (2005). Global Politics of Regionalism: Theory and Practice. Pluto Press.
5. Piketty, T. (2014). Capital in the twenty-first century. Harvard University Press.